

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Universitet talabalari orasida barqaror muhit yaratish va ularga barqarorlik tamoyillarini singdirish maqsadida universitet "Barqarorlik qo'mitasi" tomonidan tashkil etilgan "BARQARORLIK KURSI" seminar trening yanvar oyi

BAYONNOMASI

O'tkazilgan sana: 21-yanvar 2026-yil

O'tkazilgan joy: kata faol zali

Seminar mavzusi: Barqaror iste'mol va resurslardan foydalanish

Qatnashdilar: Strategik rivojlantirish bo'yicha birinchi prorektor, strategic rejalashtirish koordinatorligi ofis mutaxassisi, xalqaro reytinglar va akkreditatsiyalar koordinatorligi ofisi mutaxassislari, talabalar, tyutorlar va professor-o'qituvchilar

KUN TARTIBI:

1. Suv resurslarini tejash va ekologik boshqaruv haqida ma'lumot berish.
2. Universitetda suv va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar.
3. Talabalar va xodimlarning ekologik tashabbuslari va amaliy loyihalarda ishtiroki.
4. Savol-javob va muhokama.

MUHOKAMA:

Seminar davomida suv resurslarini tejash, chiqindilarni kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va talabalarning ijtimoiy faolligi masalalari muhokama qilindi. QS Barqarorlik reytingi indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va platformaga kiritish zarurligi ta'kidlandi. Talabalar va xodimlarning ekologik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish bo'yicha fikrlar bildirildi. Barqaror iste'mol — tabiiy resurslardan oqilona va tejamkor foydalanish, ortiqcha sarf-xarajat va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu tamoyil mahsulot va xizmatlardan foydalanishda ekologik ta'sirni hisobga olishni, energiya va suvni tejashni hamda uzoq muddat xizmat qiladigan, ekologik xavfsiz mahsulotlarni tanlashni nazarda tutadi. Barqaror iste'mol atrof-muhitga zarar yetkazmasdan jamiyat ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Resurslardan samarali foydalanish esa energiya, suv, xomashyo va tabiiy boyliklarni isrof qilmasdan, ularni qayta ishlash va qayta foydalanish orqali tejashni anglatadi. Masalan, chiqindilarni saralash, qayta ishlash, energiya tejamkor texnologiyalarni qo'llash va suvni tejash usullarini joriy etish ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Bu yondashuv iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, atrof-muhitni muhofaza qiladi va kelajak avlodlar uchun resurslarni saqlab qolishga xizmat qiladi.

QARORLAR:

1. Universitetda barqarorlik yo'nalishidagi seminar-treninglarni davom ettirish.
2. Suv va tabiiy resurslarni tejash bo'yicha amaliy tadbirlarni kuchaytirish.
3. Talabalar va xodimlarning ekologik loyihalardagi faol ishtirokini ta'minlash.
4. QS Barqarorlik indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarni o'z vaqtida tayyorlab, platformaga kiritish.



Mas'ul shaxs: Mamadaliyeva Farangiz Latifovna
Sana: _____

Imzo: _____